

## **TASHKIOTLARDA INNOVATSION OMILLARDAN FOYDALANISH YO'LLARI**

*Maxmudov Sarvarbek Ravshanbek o'g'li*

*AndMI. 4-bosich talabsi.*

*A.Anafiyayev. AndMI. dots(PhD)*

**Annotatsiya:** Bu annotatsiya, innovatsion iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni rivojlantirish mavzusini o'z ichiga olgan. Innovatsion faoliyat, iqtisodiy biznes va konkurentsija maydonida kompaniyalar uchun katta ahamiyatga ega. Maqola, innovatsion iqtisodiyotda faoliyatni rivojlantirishni tatbiq etish, ilmiy metodlarni o'rganish va amaliy tajriba bo'yicha muhim masalalarni tahlil qiladi.

**Kalit so'zlar:** Byudjet mablag'lar, kreditlar, innovatsion investitsiyalar, vechur fondler, soliq kreditlari, kredit imtiyozlari, davlat byudjeti.

Innovatsion mexanizmning boshqaruv samaradorligini va oxir-oqibat innovatsion faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlaydigan muhim elementi – moliyalashtirishdir. Innovatsiyalarni moliyalashtirishning ikki shakli ajratiladi – to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita. Birinchisi bevosita to‘g‘ridan-to‘g‘ri manbalardan, ikkinchisi – bilvosita manbalardan iborat. Moliyalashtirishning to‘g‘ridan-to‘g‘ri manbalariga quyidagilar kiradi: byudjet mablag'lar; byudjetdan tashqari fondlar; korxona (birlashma) larning shaxsiy mablag'lari; kreditlar; innovatsion investitsiyalar; maxsus fondlar; yuqori texnologiyali yangiliklarni ishlab chiquvchi vechur tashkilotlar uchun innovatsion xorijiy kreditlar; grantlar. Bu yerga boshqa manbalarni ham kiritса bo'ladi (masalan, sug‘urta fondlari, kelajakdagи vechur fondlar, maqsadli xayriya tushumlari va h.k.) [1]. Moliyaviy qo'llab-quvvatlashning bilvosita manbalariga quyidagilar kiradi: soliq imtiyozlari va chegirmalar; soliq kreditlari; kredit imtiyozlari, ya'ni korxonalarga – innovatsion ishlanmalarning potensial iste'molchilariga kreditlar taqdim etish; shartnomalar (konkret munosabatlар) va majburiyatlar bajarilmaganligi uchun moliyaviy sanksiyalar; maxsus ilmiy jihoz va stendlar lizingi; bojxona imtiyozlari; amortizatsion imtiyozlar; ilmiy-texnik mahsulotga ilmiy asoslangan narx belgilash. Bilvosita manbalarga, shuningdek, xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikda davlat proteksiyasi, novatorlarning (shu jumladan, tashabbuskor) innovatsion loyihamalarini kompleksli federal va davlat ilmiy-texnik, innovatsion dasturlarga kiritish; ilmiy tashkilotlar uchun murakkab tajribaviy-eksperimental qurilma va asboblarni ta'mirlashda ma'lum imtiyozlar va hokazolarni kiritish mumkin.

Boshqarish darajasi bo'yicha innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalari federal (umumdavlat), soha, hududiy va institutsional (korxonalar, ilmiy-ishlab chiqarish komplekslari) darajalariga bo'linadi. Tarmoq darajada innovatsiyalarni

moliyalashtirish manbalari – davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, maxsus fondlar, tashqi (chet el) va ichki davlat qarzi shaklidagi zayom mablag‘lari (obligatsiyalar, zayomlar, sertifikatlar), kreditlardir. Soha darajasida innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalariga soha va sohalararo byudjetdan tashqari fondlar, jalb qilingan mablag‘lar (aksiyalar va mol-mulk sotuvidan, maqsadli tushumlar), byudjet va bank kreditlari, xalqaro hamkorlikdan kelgan moliya resurslari kiradi. Hududiy darajada moliyalashtirish manbalari bo‘lib hududiy (respublika, viloyat) byudjet, maxsus hududiy byudjetdan tashqari fondlar, qisman federal byudjet, qisman sohalararo byudjetdan tashqari fondlar, kreditlar, innovatsion investitsiyalar xizmat qilishi mumkin. [2] Institutsional darajada (korxona, birlashma) moliyalashtirish manbalari – shaxsiy mablag‘lar, byudjet mablag‘lari, byudjetdan tashqari fondlar, kreditlar, moliya-sanoat guruhlari, ilmiy-ishlab chiqarish komplekslari va korporatsiyalar (kichik “sho‘ba” korxonalar uchun) mablag‘lari, xorijiy innovatsion resurslar (qo‘shma korxonalar uchun), aksiyalarni sotishdan tushgan mablag‘lar, kredit imtiyozlari, lizing imtiyozlaridir. Ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy-ishtag chiqarish komplekslari darajasida innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalariga shaxsiy mablag‘lar, byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar, kreditlar, qisman amortizatsion ajratmalar, lizing imtiyozlari, maxsus fondlar, ilmiy xodimlar va ilmiy muassasalar uchun grantlar kiradi. Ayrim holatlarda innovatsion loyihalarni buyurtmachilarining o‘zları – innovatsiya natijasida olingan mahsulot iste’molchilari moliyalashtiradi. Byudjet hisobidan moliyalashtirish. Innovatsiyalarni moliyalashtirishning ba’zi bir manbalarini qisqacha ko‘rib chiqamiz. Innovatsiyalarni moliyalashtirishning muhim manbasi federal (davlat) byudjetidir. Maxalliy byudjetlar ham innovatsiyalarni moliyalashtirishning manbalari ekanligini ta’kidlaymiz. Innovatsiyalarga bo‘lgan federal byudjet xarajatlari byudjetning “Fundamental tadqiqotlar va ilmiy-texnik taraqqiyotga ko‘maklashish” nomli alohida moddasida aks ettirilgan.

Bundan tashqari, davlat byudjetda innovatsiyalarga bo‘lgan xarajatlar (sohalar bo‘yicha) idoraviy xarajatlar tarkibida – “Ilmiy-texnik taraqqiyotning istiqbolli texnologiyalari va ustuvor yo‘nalishlari ishlanmasi” moddasida nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagи 133-son qaroriga muvofiq: “Davlat buyurtmasi asosida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ajratilgan hamda shu maqsadlar uch Innovatsion faoliyatda byudjet hisobidan moliyalashtirish ob’ektlari quyidagilar: 1) ilmiy-texnik taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlari; 2) maqsadli byudjet fondlari; 3) fan sektorlari, [3] yetakchi fundamental va izlanish tadqiqotlari. Ilmiy-texnik taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha davlat byudjetdan davlat innovatsion dasturlar, davlat ilmiy-texnik va xalqaro dasturlari moliyalashtiriladi.

Innovatsiyalarni moliyalashtirishning muhim manbalaridan biri korxonalarning o‘z mablag‘laridir. Korxona, birlashmalar va ko‘pchilik ilmiy-texnik tashkilotlar (ITI, KB) darajasida ular asosiy moliyalashtirish manbaidir. Hozirgi vaqtda korxonalarning o‘z mablag‘lari tobora katta rol o‘ynamoqda, bunga esa bir qator sabablar bor: bunday mablag‘larning maqsadga yo‘nalganligi, byudjet mablag‘lari etishmovchiligi, ba’zi byudjetdan tashqari fondlarning tarqalib ketishi va noto‘g‘ri ishlatalishi, kredit tizimining nomukammalligi (kreditning yuqori qiymati, banklar manfaati yo‘qligi, kreditni rasmiylashtirish murakkabligi va h.k.). Ko‘rsatilgan tendensiya umuman olganda sanoati rivojlangan mamlakatlarda milliy innovatsion tizimlari uchun ham xarakterli ekanini ta’kidlab o‘tamiz. Korxonalarning o‘z mablag‘lari o‘sishiga bo‘lgan tendensiya moliyalashtirish tizimi yo‘nalganligining yangiliklarning (mahsulot, texnologik, tashkiliy-boshqaruv) tezkor tadbiq qilinishi va qo‘llanilishiga jadallanishini aks ettiradi. Innovatsion rivojlanishga o‘z mablag‘larini sarflab, korxona (birlashma, firma) lar yangiliklarni realizatsiyasidan tez samara olishda ko‘proq manfaatdordir. Shubhasiz, aniqlangan tendensiylar kelajakda ham saqlanib qoladi. Bunda federal byudjet mablag‘lari muhim, keng ko‘lamli federal kompleksli innovatsion dasturlar bajarilishiga qaratilishi nazarda tutiladi. Korxonalarning o‘z mablag‘lari asosan daromad, amortizatsion ajratmalar, ba’zan eksportdan daromad, ro‘yxatdan chiqqan va ortiqcha mol-mulk realizatsiyasi hisobidan shakllanadi. Amortizatsion ajratmalar o‘z mablag‘larning 50% dan, daromad – 30% dan ortig‘ini tashkil etadi.

Amortizatsion ajratmalarning korxonalar o‘z mablag‘laridagi ulushidan qa’ti nazar innovatsiyalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish nuqtai [4] nazaridan quyidagilar muhimdir: 1) ilmiy-texnik ishlanmalar, tajribaviy, eksperimental va boshqa ishlarni amalga oshirish uchun amortizatsion mablag‘lardan maqsadli foydalanish tizimini shakllantirish; 2) asosiy fondlar faol qismini tezkor amortizatsiyasi usullarini qo‘llash. Mamlakatdagi innovatsion ishlanmalarning asosiy qismi amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot institutlari, tajribaviykonstrukturlik byuro va ilmiy-ishlab chiqarish komplekslarida moliyalashtirish manbalaridan biri shaxsiy mablag‘lardir. Ular quyidagilar hisobidan shakllanadi: boshqa tashkilot, davlat organlari va tijorat tuzilmalari bilan tuzilgan iqtisodiy shartnomalar asosidagi ishlarni bajarishdan tushgan foya (daromad); innovatsiyalar bozorida ilmiy mahsulot sotuvlari (patentlar, ixtiolar, litsenziyalar, nou-xau, loyiha-konstrukturlik va texnologik hujjalalar, retseptlar, tajribaviy buyumlar va texnologik reglamentlar); maslahat yordamini ko‘rsatish; amortizatsion ajratmalar. Yuqorida ko‘rsatilgan tashkilotlarning aksariyati uchun o‘z mablag‘lari tarkibida amortizatsion ajratmalar kamtarona o‘ringa ega. Ilmiy-ishlab chiqarish komplekslari bundan mustasnodir, u yerda katta hajmdagi asosiy va aylanma mablag‘larga ega bo‘lgan ishlab chiqarish bo‘linmalari ustunlik

qiladi. Loyihani moliyalashtirish. Innovatsiyalarni moliyalashtirishning muhim va nisbatan yangi shakli – loyihani moliyalashtirishdir.

An'anaga ko'ra, loyihani moliyalashtirish investitsion loyihalarni uzoq muddatli bank kreditlashi sifatida tushuniladi va 1990 yillargacha asosan investitsion loyihalarga yo'naltirilgan. Ammo hozirgi vaqtida uning ko'plab turi mavjud bo'lib, turlicha talqin etiladi va innovatsion faoliyatga ham kirib keldi. Loyihani moliyalashtirishning innovatsion sohaga (uning turlaridan biri) kirib kelishi innovatsion investitsiyalarga bog'liq, ya'ni dastlab loyihalarni amalga oshirish uchun kiritilgan investitsiyalar qisman progressiv yuqori texnologiyali yangiliklar[5] ishlanmasiga va o'zlashtirilishiga qaratilardi. U vaqtida innovatsion investitsiyalar (yangiliklarga bo'lган investitsiyalar) ikkinchi darajali maqsadni ko'zlab, asosiy investitsion loyihalarning bir qismigina edi.

Ammo innovatsion investitsiyalar samaradorligi, innovatsion ishlanmalar keng ko'lamligi va murakkabligi, mamlakat va uning hududlari iqtisodiy rivojlanishining innovatsiyalarga yo'nalgaligi loyihani moliyalashtirishning yangi turi shakllanishiga olib keldi. Loyihani moliyalashtirishda asosiy kreditor-investorlar tijorat va innovatsion banklardir, lekin bular davlat muassasalari, xorijiy kompaniyalar, turli soha korxonalari, xalqaro moliya tashkilotlari va nodavlat (tijorat) tuzilmalari bo'lishi mumkin. Innovatsiyalarni moliyalashtirishning bunday shakli konkret innovatsion loyihalar tanlashdagi tashkiliy murakkabligi, axborotning cheklanganligi va tijorat xavfining ortishi bilan ajralib turadi. Moliyalashtirishning ushbu shakli xususiyatlari davlat organlari va xalqaro moliya tashkilotlarining aniq va qonuniy jihatdan mustahkamlangan kafolatlari mavjudligi, investor-kreditorlar, loyiha tashkilotchilari va kafillari o'rtasidagi xatarlarni aniq taqsimlashni o'z ichiga oladi. O'ziga xos xususiyati shundaki, loyihani moliyalashtirishga faqat realizatsiyadan keyin doimiy moliya oqimini va qarzdorlik majburiyatlarini qoplanishini ta'minlay oladigan innovatsion ishlanmalarga ruxsat beriladi. Keyingisi innovatsion ishlanmalarining har tomonlama va malakali ekspertizasi o'tkazilishini talab etadi. Qarzdorlik majburiyatlarini qoplanishi birlamchi manbalar, innovatsion loyihani realizatsiyasidan tushgan daromad hisobidan amalga oshiriladi, ayrim holatlarda esa ular ikkilamchi manbalar, kafil va byudjet dotatsiyalari (subsidiyalari) hisobidan qoplanishi mumkin. Loyihani moliyalashtirish o'ziga xosliklari qatoriga kreditorlar (banklar, maxsus innovatsioninvestitsion fondlar, xalqaro moliya tuzilmalari) bilan innovatsion loyihalarni amalga oshirish jarayonlarini kelishishni ham kiritish lozim. Innovatsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish uchun innovatsiyalar portfeli shakllanishi va qo'llanilishi xarakterlidir.[6] Innovatsiyalar portfeli odatda ishlar hajmi (yirik, o'rta va kichik), murakkabligi va ahamiyati, realizatsiya muddatlari va sohalari bilan ajralib turadigan turli loyihalarni o'z ichiga oladi.

Bunday tabaqalanish loyihaning texnik va tijorat xavflarini kamaytirishga imkon berib, loyihalarning realizatsiyadagi samaradorligini oshiradi. Innovatsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishning bir qator turlari qo'llanilib, ular kredit majburiyatlarining qoplanish usullari, ishtirokchilarining kreditga layoqatliligi va hokazolar bilan ajralib turadi. Har qanday holatda eng samarali loyihaviy moliyalashtirish – innovatsion loyihani realizatsiyasidan olingan daromad kredit majburiyatlarini qplashning yagona manbai bo'lgandagi variantdir. Loyihani moliyalashtirish bir qator afzalliklar va kamchiliklarga ega. Afzalliklarga moliyalashtirishning maqsadli xarakteri, tijorat xatarlarining taqsimlanishi, davlat va moliya tashkilotlarining kafolatlari kiradi. Loyihani moliyalashtirish kamchiliklari: loyiha xatarlarining ancha yuqori darajasi, innovatsion muhitga bog'liqligi, qonunchilikdagi (shu jumladan, innovatsion qonunchilikdagi) kamchiliklar. Bir qator tamoyillarga rioya etilib, talablar majmui hisobga olinsa va ma'lum sharoitlar yaratilgan holatda loyihaviy moliyalashtirish innovatsiyalarni moliyalashtirishning samarali shakllariga kiritilishi mumkin. So'nggi yillarda davlat byudjetidan sohaga ajratilayotgan mablag'lar hajmi 3 martagacha oshirildi. Lekin ular asosan ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilarning maoshlari, moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga sarflanmoqda. Ilmiy tashkilotlarning moddiy-texnika va ilmiy laboratoriylar ba'zalarini rivojlantirmas ekanmiz, ko'zlagan maqsadimizga erisha olmaymiz". Shu sababdan ham, vaziyatni o'nglash va 2030 yilga kelib O'zbekistonning Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahoning 50 ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish maqsadida – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21-yanvardagi Tanzila Norboeva: "Ilm-fan, innovatsiyalar soxasisaga xususiy sektorni jalg qilish ko'rsatkichini juda past".[7] Sentyabrdagi PF-5544-son Farmonida, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirishning quyidagi yo'nalishlari belgilangan: ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga sarflanadigan davlat xarajatlarini ko'paytirish va 2021 yilga borib bu ko'rsatkichni yalpi ichki mahsulot hajmining 0,8 foiziga yetkazish; innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha maxsus institutlar (innovatsiya jamg'armalari, innovatsiya banklari, vechur jamg'armalari) tashkil etish; mamlakatni innovatsion rivojlantirishni rag'batlantirish uchun bank kreditini olish tartib-taomillarini va talablarini soddalashtirish; innovatsion taraqqiyotni mikromoliyalashtirish tizimini takomillashtirish; ilmiy-texnologik rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va moliyalashtirishda xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish; innovatsion loyihalar va salohiyatli investorlarning doimiy ravishda yangilab boriladigan yagona ma'lumot bazasini tashkil etish; innovatsion loyihalar uchun grantlar va texnik ko'mak mablag'larini olish va ulardan foydalanish tartib-taomillarini soddalashtirish va shaffofligini oshirish.

Xulosa shuki, innovatsion loyihalar hayotiy siklining barcha bosqichlarida moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi, ularning rad etilishi yoki to'xtatib qo'yilishi

kabi holatlarning bo‘lmasligini kafolatlaydi. Innovatsiya jarayonini moliyalashtirish uchun byudjetdan tashqari mablag‘lar Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalaridan biri – byudjetdan tashqari fondlardir. Ular innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalari sifatida innovatsion jarayonni boshqarishning barcha darajalarida: davlat, soha, hududiy, institutsional (korxonalar, ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy-texnik institutlari) darajasida faoliyat ko‘rsatadi. Byudjetdan tashqari fondlar mazmuni, ahamiyati va vujudga kelish xususiyatlarini qisqacha ko‘rib chiqamiz. Korxonalarning qayta qurilishi va qayta qurollanishi, ishlab chiqarishni tashkil etishning prinsipial yangi shakllarini qo‘llash, prinsipial yangiliklarni o‘zlashtirish va hokazolar zarurati katta resurslar bo‘lishligini va ularning tezkor qayta taqsimlanishini talab etadi. Ma’lumki, davlat byudjeti – moliya resurslari vujudga kelishining samarali shakllaridan biridir. Biroq byudjet mablag‘larini ishlatish qonunchilik organlari tomonidan tartibga solinadi, shu bois mablag‘larni tezkor qayta taqsimlash masalasi bo‘lishi mumkin emas. Mulkchilik shakllarining xilma-xilligi, davlat mulkchilik ulushining qisqarishi mablag‘larni qayta taqsimlashning yangi usullaridan foydalanishni talab qilib, moliya resurslari vujudga kelishining boshqa shakllari – byudjetdan tashqari fondlarning tashkil etilishiga sabab bo‘ladi. Ular tezkor qayta taqsimlanishi va ishlatilishi mumkin, chunki byudjetdan tashqari fondlar faqat ijro etuvchi organlari tomonidan tartibga solinib, qonunchilik organlari tomonidan esa nazorat qilinmaydi.

Albatta, mablag‘larni qayta taqsimlash, qaror qabul qilish tezkorligi bilan bog‘liq masalalar boshqa yo‘l bilan hal etilishi mumkin. Masalan, davlat yoki mahalliy byudjetdan maqsadli vazifa va loyihibar, shu jumladan, innovatsion ishlar uchun muayyan qismi ajratiladi. Lekin masalalar katta ko‘lamliligi va xilma-xilligida bularning o‘zi etarli emas. Shu sababli qonunchilik organi qaroriga ko‘ra aniq maqsadli, o‘z daromadlari manbalariga ega bo‘lgan byudjetdan tashqari fondlar tashkil etiladi. Byudjetdan tashqari fondlar – aniq (ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy, texnologik, ekologik xarakterdag‘i) maqsadlarni amalga oshirish va turli darajadagi byudjetlarda nazarda tutilmagan ehtiyojlarni moliyalashtirish uchun ajratilgan moliya resurslarini qayta taqsimlash va ulardan foydalanish shakli. Hozirgi vaqtida ular moliya tizimi, xususan, innovatsiyalarni moliyalashtirish tizimining muhim bo‘g‘inidir. Byudjetdan tashqari fondlarning aksariyati davlat va munitsipal tuzilmalarga tegishli, lekin ular avtonomdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <http://fayllar.org>
2. <https://renessans-edu.uz>
3. <https://uz.wikipedia.org/>
4. <https://kompy.info/>
5. <https://fayllar.org/>
6. <https://cyberleninka.ru/>
7. [www.Kun.uz](http://www.Kun.uz) (20.06.2020)